https://gospodarkainnowacje.pl GOSPODARKA I INNOWACJE

LABORATORIUM WIEDZY Artur Borcuch

*Volume: 44 | 2024*

**Economy and Innovation**
**ISSN: 2545-0573**

# O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM SOHASIDA XALQARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBALARI VA ISTIQBOLLARI

**Sobirova Muhtasar**
Namangan davlat pedagogika instituti
Ta'lim tarbiya nazaryasi (maktabgacha ta'lim) mutaxasisligi

**ARTICLEINFO.**

***Kalit so‘zlar:***

*Maktabgacha ta’lim, YUNISEF, Yevropa Ittifoqi, BMT.*

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish tajribalari va istiqbollari haqida yoritilgan.*

.

. http://www.gospodarkainnowacje.pl/ © 2024 LWAB.

Ta'lim-tarbiya – biz uchun hayot-mamot masalasidir, dedi prezident. Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o‘zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog‘lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev**

Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlari doirasida davlat organlarining sohaga oid bo‘lmagan vazifalarini qisqartirish va faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali maqbullashtirish hisobiga bo‘shaydigan mablag‘lar ijtimoiy soha, jumladan ta’lim sohasidagi masalalarni hal etishga yo‘naltirilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF) hamda Yevropa Ittifoqi hamkorligida “Surxondaryo viloyatida inklyuziv ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasi amalga oshirilib kelinmoqda.

Loyihani amalga oshirishda tashkil etiladigan 10 ta innovatsion inklyuziv ko’p tilli ta’limga yo’naltirilgan muqobil qisqa muddatlimaktabgacha ta’lim guruhlaning faoliyati uchun hududiy hokimiyat organlari tomonidan joylar bilan ta’minlash va xodimlarga mahalliy byudjet hisobidan ish haqini to’lash hamda Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF) tomonidan ajratilgan mablag’lar hisobidan ushbu guruhlarni tashkil etish uchun ajratilgan bo’sh xonalarni ta’minlash, ularni kerakli bo’lgan jihozlar, o’quv didaktik material va o’yinchoqlar bilan ta’minlash hamda ushbu guruhlarda faoliyat yuritadigan pedagog xodimlarini o’qitish ko’zda tutilgan.



Copyright © 2024 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

Shuningdek, loyiha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF) hamda Yevropa Ittifoqi hamkorligida Surxondaryo viloyatidagi afg‘on bolalari va ehtiyojmand oilalar farzandlariga maktabgacha ta’lim uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida inklyuziv ko‘p tilli ta’limga yo‘naltirilgan muqobil guruhlarda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy salohiyatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, loyihada belgilangan mezonlar asosida Termiz shahri, Termiz va Muzrabot tumanlardagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida Innovatsion inklyuziv ko‘p tilli ta’limga yo‘naltirilgan muqobil qisqa muddatli maktabgacha ta’lim guruhlari tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi huzuridagi Maktabgacha ta’lim agentligi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro bolalar fondi (YUNISEF) hamda Yevropa Ittifoqi hamkorligida “Surxondaryo viloyatida inklyuziv ta'lim, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2023-yilning 10-14-sentyabr kunlari Termiz shahrida “Ko‘p tilli muqobil guruhlarda pedagogik yondashuvlar” mavzusida o‘quv-amaliy trening o'tkazildi.

2023- yilning aprel-may oyi davomida YUNICEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi ta’lim bo‘limi xodimlari, xalqaro ekspert Tereza Gonsales va Maktabgacha ta’lim agentligi vakili ishtirokida Surxondaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasida hamkorlik uchrashuvi bo‘lib o‘tgan edi.

Tashrif doirasida loyiha bo‘yicha tanlangan maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va metodistlari, hamda tarbiyachilari bilan suhbat o'tkazilib, ota-onalar va mahalla vakillari, jumladan afg‘on jamoatchiligi vakillari bilan uchrashuvlar bo'lib o'tgan edi.

Shuningdek, uchrashuvda yig‘ilganlarga Surxondaryo viloyatida Afg‘onistonlik maktabgacha yoshdagi bolalarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshiriladigan ishlar, kelgusidagi rejalar yuzasidan ma’lumot berilib, ustuvor vazifalar belgilangan.

Ma’lumot uchun, loyiha 2022-yil 8-sentyabr kuni Surxondaryo viloyatida loyihaning boshlanishiga bag‘ishlangan tadbirda YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi, Yevropa Ittifoqi, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, Surxondaryo viloyat hokimligi hamkorligida viloyatda inklyuziv ta’lim, ijtimoiy xizmatlar va huquqiy yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish dasturiga bag‘ishlangan tadbir bo‘lib o‘tdi. Unga ko‘ra loyiha 2023-yilning yakuniga qadar davom etadi. Loyiha doirasida mahallalardagi bolalar, yoshlar, oilalar uchun ko‘rsatiladigan ijtimoiy xizmatlarni takomillashtirish maqsad qilingan. Ijtimoiy xizmat xodimlarining salohiyatini kuchaytirishga ham alohida e’tibor qaratiladi.

YUNISEF faoliyatida dunyo bolalarining huquq va farovonligi ta’minlashni o‘z oldiga maqsad qilgan. Ushbu majburiyatni amaliy harakatlarga aylantirish uchun jahonning 190 mamlakati va hududlarida faoliyat olib boradi. Bu bilan ijtimoiy jihatdan yakkalab qo‘yilgan, alohida etibor va yordamga muhtoj bolalarning manfaatlarini ilgari suradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori 2018-yil 30-sentabr PQ-3944 son qaror lex.uz
2. “Fransiyada maktabgacha ta’lim sohasida Parij akademiyasi bilan hamkorlikning istiqbollari muhokama qilindi”. dunyo.info. rasmiy sayti 2022-yil 24-fevral.



Copyright © 2024 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0

3. N.N.Djamilova. “Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o‘qitish metodikasi”. O‘quv qo‘llanma. T: 2018.
4. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. “Academic research in educational sciences”, 2(9), 886-889.
5. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. “Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)”, Special issue, 116-121.
6. Сардоржон Кодиржон Үгли Салойдинов. (2022). Инновационное решение для
7. Tolibjonovich, M. T. (2024). The Emergence of Jadid Enlightenment and the Formation of Statehood Ideas. International Journal of Formal Education, 3(2), 24-27.
8. Abdullayev, A. (2023). FUQAROLIK JAMIYATIDA DINIYLIK VA DUNYOVIYLIK UYG ‘UNLIGINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLARI. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(3), 113-117.
9. Kozimbekovna, D. G. (2024). PSYCHOLOGICAL INTERPRETATION OF TEACHER'S SOCIAL HEALTH CHARACTERISTICS. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI, 4(2), 76-80.



Copyright © 2024 All rights reserved International Journal for Gospodarka i Innowacje This work licensed under a Creative Commons Attribution 4.0